

Hayvonlar. Ularning tasnifi



Biz hayvonlarni qanday belgilari orqali taniymiz?



Hayvonlar o'simliklar yoki boshqa hayvonlar bilan oziqlanadi. Shuningdek, ularning aksariyati omon qolish uchun ko'rish, eshitish va hid bilish qobiliyatiga ega.



Bu hayvonlarda qanday umumiylik bor?



Hayvonlar jonli tabiatning bir qismi bo'lib, o'simliklar, zamburug'lar va mikroorganizmlar bilan birgalikda tirik olamni tashkil etadi.




Hayvonlar olami **fauna** deb ataladi. Hayvonlarni o'rganadigan fan **zoologiya** deb ataladi.

Hayvonlarning asosiy belgilari



nasl qoldiradi



**tayyor oziqa bilan
oziqlanadi**



o'sadi va rivojlanadi



**kislorod bilan nafas
oladi**



faol harakatlana oladi



**sezgi a'zolari yordamida
atrofdagi olamni idrok
etadi**

Sayyoramizda hayvonlarning bir milliondan ortiq turi yashaydi. Ular issiq cho'llar, muzliklar, o'rmonlar, tog'lar, dashtlar va okeanlar kabi turli yashash sharoitlariga moslashgan.



Qanday xususiyatlar oq ayiqning Shimolda yashashiga, tuyaning cho'lda yashashiga, boyqushning esa tunda ov qilishiga yordam beradi?





Hayvonlar qanday **guruhlarga** bo'linadi?



Hayvonlar juda xilma-xildir. Olimlar ularni **tana tuzilishi, oziqlanish usuli va yashash tarziga ko'ra** guruhlarga ajratadilar.



Rasmlarga qarang. Bu hayvonlar qaysi belgisiga ko'ra uch xil guruhga ajratilgan?



Umurtqali hayvonlar



Umurtqali hayvonlar ichki skeleti va umurtqa pog'onasi bo'lgan hayvonlardir.



1 Baliqlar suvda yashaydi va oyquloqlari yordamida nafas oladi. Baliqlarning aksariyati uvuldiriq qo'yadi. Masalan: cho'rtanbaliq, zog'orabaliq, olabug'a.

2 Ham suvda, ham quruqlikda yashovchilarning terisi nam va yupqa bo'ladi. Masalan: baqa, triton.

3 Sudralib yuruvchilarning tanasi quruq tangachalar bilan qoplangan. O'pkasi yordamida nafas oladi va tuxum qo'yadi. Masalan: toshbaqa, ilon, kaltakesak.

4 Qushlarning tanasi patlar bilan qoplangan. Tumshug'i bo'ladi. Qushlarning aksariyati ucha oladi. Masalan: chittak, burgut, sa'va.

5 Sutemizuvchilarning tanasi jun yoki tuk bilan qoplangan. Bolalarini sut bilan boqadi. Masalan: olmaxon, quyon, sigir.



Hayvonlarga skelet nima uchun kerak?

Umurtqa pog'onasi nima uchun muhim?




Odam va hayvonlar tanasining asosini **skelet** tashkil etadi. Bosh suyagi bosh miyani himoya qiladi. Egiluvchan umurtqa pog'onasi alohida umurtqalardan iborat bo'lib, tananing egilishiga yordam beradi.

Umurtqa pog'onasi ichida **orqa miya** joylashgan. U tana harakatlarini boshqarishga yordam beradi.

Yurak va qon aylanish tizimi butun organizmning hayot faoliyatini ta'minlaydi. **Sezgi a'zolari atrofdagi olamda mo'ljallash olish va yashab qolishga yordam beradi.**

odamning
skeleti



itning skeleti



qushning
skeleti



baliqning skeleti



O'rta Osiyo kobrasi – Markaziy Osiyoda yashaydigan yirik zaharli ilon. Uning ichki skeleti va umurtqa pog'onasi bor. Odamning umurtqa pog'onasi 33 ta umurtqadan iborat bo'lsa, kobraning umurtqa pog'onasi 300–400 ta umurtqadan iborat. Umurtqalarning aksariyatiga qovurg'alar birikkan. Bu tanani egiluvchan qiladi, egilish, sudralish va oldinga keskin tashlanish imkonini beradi. Ko'pchilik umurtqali hayvonlardan farqli ravishda kobraning oyoqlari yo'q. Ularning vazifasini umurtqa pog'onasi va mushaklar bajaradi.

Kobraning jag' suyaklari to'liq birikmagan. Shu sababli u boshidan ancha katta o'ljani ham butunligicha yuta oladi.



Umurtqasiz hayvonlar

Yerdagi hayvonlarning aksariyati **umurtqasiz hayvonlardir**. Ularda **umurtqa pog'onasi** bo'lmaydi.

Umurtqasiz hayvonlar tuproqda, suvda, o'rmonlarda, cho'llarda va hatto odamlarning yonida ham yashaydi.



1 Hasharotlarning oltita oyog'i bo'ladi. Ularning tanasi bosh, ko'krak va qorin qismlaridan iborat. Masalan: ari, chumoli, kapalak.

2 O'rgimchaksimonlar – sakkizta oyog'i bo'lgan jonzorlar. Masalan: o'rgimchak, chayon.

3 Molluskalarning tanasi yumshoq bo'ladi. Ularning ayrimlari himoya qobig'iga ega. Masalan: shilliqqurt, sakkizoyoq.

4 Chuvalchanglar – tanasi uzun, yumshoq va egiluvchan jonzorlar. Masalan: yomg'ir chuvalchangi, askarida, zuluk.

5 Ignatanlilar – tanasi ignalar yoki ohaktosh plastinkalari bilan qoplangan jonzorlar. Ular dengiz va okeanlarda yashaydi. Masalan: dengiz yulduzi, dengiz tipratikani.

Umurtqasiz hayvonlarning tabiatdagi o'рни

Hasharotlar o'simliklarni changlatadi. Yomg'ir chuvalchaglari tuproqni yumshatib, unumdorligini oshiradi. Ko'plab umurtqasiz hayvonlar boshqa hayvonlar uchun oziqa bo'ladi. Hatto eng kichik jonzo'tlar ham tabiatda muhim vazifani bajaradi.



Rasmlarga qarang. Umurtqasiz hayvonlarning nomini ayting. Ular haqida nimalarni bilishingizni va tabiatda qanday vazifani bajarishini so'zlab bering.



Sizningcha, umurtqasiz hayvonlarning sezgi a'zolari bormi?



1. Hayvonlarning asosiy belgilarini ayting.
2. Umurtqali hayvonlar umurtqasiz hayvonlardan nimasi bilan farq qiladi?
3. Umurtqali hayvonlarning qanday guruhlarini bilasiz?
4. Umurtqasiz hayvonlarning qanday guruhlarini bilasiz?
5. Hayvonlar tabiatda qanday vazifani bajaradi?



Uy hayvoni yoki hovlingizdagi biror jonzo'tni kuzating. Kuzatish natijalarini mashq daftaringizga yozing.

